



XOTIN QIZLAR JINOYATCHILIGINING OLDINI OLIHDA PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING IJTIMOIY HAYOTI XOTIN-QIZLAR MASALALARI BO'YICHA INSPEKTORLARI BILAN HAMKORLIGINING TUSHUNCHASI VA FAOLIYAT YO'NALISHLARI

Aminova Dono Azizbek qizi

IIV Akademiyasi 2-o'quv kursi, 311-guruh kursanti.

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada xotin-qizlar jinoyatchiligining oldini olishda profilaktika inspektorlari hamda ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmun-mohiyati, huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, uning samaradorligini oshirish omillari hamda profilaktik faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *xotin-qizlar jinoyatchiligi, profilaktika inspektori, ichki ishlar organlari, hamkorlik, profilaktika, huquqbuzarliklarni oldini olish, ijtimoiy himoya, huquqiy tarbiya.*

Jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda jinoyatchilikka moyilligini kamaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda profilaktika inspektorlari va ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari o'rtasidagi samarali hamkorlik alohida o'rin tutadi.

Mazkur hamkorlik nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olish, balki ularning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, ijtimoiy xavfli holatdagi xotin-qizlarni aniqlash va ular bilan individual ish olib borishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, amaldagi tizimda ushbu hamkorlikni yanada takomillashtirish, uning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini kuchaytirish zarurati mavjud.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarga e'tibor sezilarli darajada oshdi. Hususan, xotin-qizlarning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarda faol ishtirok etish imkoniyatlari kengaydi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasida gender tengligiga alohida e'tibor qaratildi va bu orqali xotin-qizlarning erkaklar bilan bir qatorda jamiyat hayotining turli jabhalaridan, jumladan, ilgari faqat erkaklarga imtiyoz berilgan sohalarida ham samarali faoliyat olib borishi belgilandi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, xotin-qizlarimizning ijtimoiy ahvolini yaxshilash maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilganini va hozirda ham bu jarayon



davom etayotganligiga qaramay, oila gavhari bo'lmish xotin-qizlar tomonidan jinoyatchilik sodir etilishi juda ham ayanchli holdir.

Xotin-qizlar tomonidan jinoyatchilik sodir etilishi ijtimoiy shart-sharoitlarga qarab o'zgarib boradigan, shu bilan bir qatorda umuman erkaklar jinoyatchiligidagi o'zgarishlarni takrorlamaydi. Yuqorida zikr etilgan sabablarga ko'ra, xotin-qizlar tomonidan jinoyatchilik sodir etilishining o'sib borishga moyil bo'lgan mustaqil qismini tashkil etadi.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichi qonuniy ravishda ayollarning shaxs sifatidagi holati o'zgarishiga olib keladi. Bunday aloqa jinoiy qilmishlar sohasida ham mavjud. Ayollarning bandligi va ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar o'rtasida ma'lum bog'liqlik kuzatiladi. Bundan ayollar jinoyatchiligini va umuman jinoyatchilik muammosini muayyan tarixiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganish kerak bo'ladi. Muayyan ijtimoiy vaziyatlarning tahliligina mazkur murakkab muammoni hal qilish imkonini beradi.

Xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini kuchaytirish va ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni tahlilidan kelib chiqib, tizimli va maqsadli chora-tadbirlarni belgilab olinishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizga ma'lumki, er-xotin, aka-uka, qo'ni-qo'shni, qarindoshlar o'rtasidagi nizolar va ta'lim muassasalarida sodir etilgan huquqbuzarliklar oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar deb baholanadi. Ushbu huquqbuzarliklar o'z vaqtida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlar ko'rilmasa, bu jinoyat bo'lib ildiz otishi mumkin.

Ko'pincha ayollar jinoyatchiligida o'g'irlik, tovlamachilik, firibgarlik, giyohvandlik vositalarining g'ayriqonuniy muomalasi, savdo qoidalarini buzish, fohishaxonalar saqlash, qasddan badanga shikast yetkazish, xaridor va buyurtmachilarni aldash, tanosil kasalliklarini yuqtirish ko'pchilikni tashkil etadi. Xozirda xotin-qizlar, eng og'ir jinoyat qasddan odam o'ldirishga ham qo'l urishmoqda.

Misol uchun, oila – turmush doirasida 6 ta odam o'ldirish sodir etilgan bo'lib, ularning sabablari va shart-sharoitlari o'rganilganda, jinoyatlar o'zaro murosaga kelisha olmaganligi va mast holatda, ruhiy kasalligi tufayli, eski adovatlari, qo'ni-qo'shnilarning yillar davomdagi urish-janjallarining keskin tus olishi hamda boshqa sabab va oqibatida sodir etilganligi ma'lum bo'lgan.

Shuningdek, oila-turmush doirasida tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlardan qasddan badanga og'ir tan jarohati yetkazish jinoyati (JK 104-moddasi) 5 ta bo'lib, Yunusobod tumanida ikkitadan, Yashnobod, Olmazor, Bektemir tumanlarida bittadan sodir etilgan.

Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyati (JK 105-moddasi) 44 ta, qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyati (JK 109-moddasi) 68 ta sodir etilgan.

Shu o'rinda, «Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichi qonuniy ravishda ayollarning shaxs sifatidagi holati o'zgarishiga olib keladi. Bunday aloqa jinoiy



qilmishlar sohasida ham mavjud. Ayollarning bandligi va ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar o'rtasida ma'lum bog'liqlik kuzatiladi degan fikrga qo'shilamiz. Bundan ayollar jinoyatchiligini va umuman jinoyatchilik muammosini muayyan tarixiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganish kerak, degan muhim metodologik prinsip kelib chiqadi. Muayyan ijtimoiy vaziyatlarning tahlili mazkur murakkab muammoni hal qilish imkonini beradi.

Jinoyatlarning oldini olish maqsadida xotin-qizlarni profilaktik hisobga olish, ularni ro'yxatdan o'tkazib, ayollar bilan tegishli profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish va mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda, ayollarning bandligini ta'minlash, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini aniqlab, yordam ko'rsatish mexanizmi to'liq ishlashi lozim.

Ushbu oila-turmush doirasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha shahar-tuman ichki ishlar boshliqlari tegishli hududning sutka davomidagi kriminogen vaziyati haqidagi ma'lumotlar bilan birga oila-turmush munosabatlaridagi huquqbuzarliklar ro'yxati bilan shaxsan tanishishligi, ushbu turdagi huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olishlari tavsiya etiladi.

Shuningdek, Xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirish maqsadida doimiy ravishda qo'yidagi ishlarni amalga oshirib borilishi lozim:

- tegishli hududdagi barcha sektor rahbarlariga sutkalik kriminogen vaziyat haqidagi ma'lumotlar bilan birga, birlashtirilgan hududdagi oila-turmush munosabatlaridagi huquqbuzarliklar ro'yxatini (faqat Shakl-1 kitobi, Shakl-2 jurnaliga qayd qilingan) chora-tadbirlar belgilash, sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish uchun yuborishlar;

- ushbu turdagi huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlar qayd qilingandan boshlab uch kun muddatda tegishli jamoatchilik vakillari, mavjud muammolarni bartaraf etishga mas'ul idora xodimlari ishtirokida huquqbuzarlikni kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini o'rganib, muhokamaga to'liq tayyorgarlik ko'rgan holda o'zi yoki sektorlar kesimida birlashtirilgan o'rinbosarlari tomonidan muhokama qilinishini ta'minlashlari;

- aniqlangan muammolarni mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda qisqa muddatlarda hal etish choralarini ko'rishlari;

- muammolarni bartaraf etish imkoniyati shahar yoki viloyat darajasida ekanligi aniqlangan taqdirda, mutasaddi tashkilotlar va huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi orqali muammoni tezkorlik bilan hal etish choralarini ko'rishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, ayniqsa, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xotin-qizlar jinoyatchiligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning kelib chiqishida ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, oilaviy muammolar, ishsizlik, ma'naviy muhit va tashqi ta'sirlar muhim o'rin tutadi.



Shu jihatdan ushbu turdagi jinoyatchilikni barvaqt aniqlash va uning oldini olish kompleks yondashuvni talab etadi.

Profilaktika inspektorlari hamda xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar faoliyati amaldagi qonunchilik asosida tashkil etilgan bo'lib, ular jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish hamda ijtimoiy profilaktika choralari amalga oshirishda muhim vazifalarni bajaradi. Ushbu sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining muhim elementi bo'lib, u o'zaro muvofiqlashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan va tizimli faoliyatni o'z ichiga oladi.

Hamkorlikning mazmun-mohiyati, avvalo, axborot almashinuvi, xavf guruhiga kiruvchi xotin-qizlarni aniqlash va ular bilan individual ish olib borish, qo'shma profilaktik tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish, shuningdek profilaktik hisob va monitoringni yuritishda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar inspektorlari bir-birini to'ldiruvchi funksiyalarni bajaradi hamda o'zaro hamjihatlikda ish olib boradi. Ayniqsa, huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan manzilli ishlash, ularning ijtimoiy muammolarini o'rganish va bartaraf etish orqali jinoyatchilikning oldini olish samaradorligi oshiriladi.

Shu bilan birga, ushbu hamkorlikning asosiy yo'nalishlari sifatida barvaqt profilaktika, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy tarbiya, reabilitatsiya ishlari hamda tahliliy faoliyatni ko'rsatish mumkin. Barvaqt profilaktika doirasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan xotin-qizlar aniqlanib, ular bilan tizimli ravishda ish olib boriladi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali muammoli oilalardagi xotin-qizlarga amaliy yordam ko'rsatiladi, ularning bandligi ta'minlanadi va ijtimoiy himoya choralari ko'riladi. Huquqiy tarbiya esa aholi o'rtasida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Reabilitatsiya ishlari jinoyat sodir etgan xotin-qizlarni jamiyatga qayta moslashtirishga qaratilgan bo'lsa, tahliliy faoliyat orqali jinoyatchilikning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlari chuqur o'rganiladi.

Amaldagi tizim tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur sohada ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, hamkorlik mexanizmlarining yetarlicha samarali yo'lga qo'yilmaganligi, axborot almashinuvidagi kamchiliklar, profilaktik tadbirlarning yetarli darajada tizimli tashkil etilmaganligi hamda kadrlar malakasini oshirishga bo'lgan ehtiyoj mavjudligi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida profilaktik faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda profilaktika faoliyatini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda yagona axborot bazalarini shakllantirish, xavf guruhiga kiruvchi xotin-qizlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa profilaktika inspektorlari hamda xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



Bundan tashqari, mahalla instituti, ta'lim muassasalari va boshqa tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali kompleks profilaktika tizimini shakllantirish mumkin. Chunki xotin-qizlar jinoyatchiligining oldini olish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, balki keng jamoatchilik ishtirokini ham talab etadi. Ayniqsa, oila muhitini sog'lomlashtirish, yosh qizlarni to'g'ri tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlash orqali jinoyatchilikning ildiziga barham berish mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, profilaktik chora-tadbirlar individual yondashuv asosida tashkil etilgan taqdirda, ularning samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu sababli har bir xotin-qizning ijtimoiy holati, psixologik xususiyatlari va hayotiy sharoitlarini inobatga olgan holda manzilli ish olib borish muhimdir. Bu esa o'z navbatida profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar inspektorlaridan yuqori kasbiy tayyorgarlik, muloqot madaniyati va psixologik bilimlarni talab etadi.

Shuningdek, jinoyat sodir etgan yoki huquqbuzarlikka moyil bo'lgan xotin-qizlar bilan ishlashda rehabilitatsiya va qayta ijtimoiylashtirish choralari kuchaytirish lozim. Ularni kasb-hunarga o'qitish, ish bilan ta'minlash, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish orqali jamiyatga qayta moslashuviga ko'maklashish mumkin. Bu kabi choralar nafaqat takroriy jinoyatchilikning oldini oladi, balki xotin-qizlarning jamiyatda munosib o'rin egallashiga ham zamin yaratadi.

Yana bir muhim jihat — profilaktika sub'ektlari faoliyatini baholash mezonlarini takomillashtirish hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'p hollarda faoliyat samaradorligi statistik ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Biroq, profilaktika ishlarining natijadorligini aniqlashda sifat ko'rsatkichlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiq. Masalan, huquqbuzarliklarning kamayishi bilan bir qatorda, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi, bandlik darajasi va huquqiy ongining oshishi kabi omillar ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, xotin-qizlar jinoyatchiligining oldini olishda profilaktika inspektorlari hamda ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy va psixologik omillarni uyg'unlashtirgan holda ish olib borish, zamonaviy usul va vositalardan foydalanish, shuningdek barcha manfaatdor sub'ektlar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr.
<https://president.uz/uz/lists/view/8834>



2. Таштемиров, А. А. "Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги." *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali* 2.25 (2023): 32-40.

3. Таштемиров, А. А. "Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари." *So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi* 6.12 (2023): 454-461.

4. Таштемиров, А., and X. Юлдошев. "Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари." *Академические исследования в современной науке* 3.17 (2024): 55-61.

5. Таштемиров, А. А. "Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари." *World of Science* 6.6 (2023): 169-175.

6. Тоштемиров, А. "Киберфирибгарлик билан боғлиқ жиноятларнинг пайдо булиш ва ривожланиш тарихи." *Общество и инновации* 3 (2022): 11.

7. Таштемиров, А. А., and С. А. Калауов. "Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати." *barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali* 2.8 (2022): 245-250.

8. Таштемиров, А. А. "Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги." *Innovative achievements in science* 2025 (2024): 82-90.

9. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар // *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

10. Tashtemirov, A., and A. Po'latov. "Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari." *Иновационные исследования в науке* 3.1 (2024): 75-78.

11. Таштемиров, А. А. "Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш." *So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi* 6.12 (2023): 552-558.

12. Таштемиров, А. "Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш даврлари." *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 2 (2023): 133-139.

13. Таштемиров, А. А. "Техник криминалистик экспертиза–ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг асосий омили сифатида." *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali* 2.21 (2023): 12-19.

14. Таштемиров, А., and Ж. Курчибоев. "Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва



аҳамияти." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 3.12 (2023): 130-135.

15. Таштемиров А. А. Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фoш этишда тезкор ходимларнинг терговчи ва суриштирувчилар билан ҳамкорлигининг айрим жиҳатлари //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 156-164.

16. Таштемиров, А. А. "Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы." International scientific research conference. Vol. 3. No. 28. 2024.

17. Таштемиров, А. А. "Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинладиган жазо тизимининг ўзига хослиги." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 2.10 (2022): 42-48.

18. Tashtemirov A. Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo'yicha sudlar bilan hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – С. 38-42.

19. Tashtemirov A. Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.

20. Tashtemirov, A. "Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash." (2024): 59-61.

21. Таштемиров, А., and А. Хўжамбердиев. "Оила-турмуш муносабатлари доирасидаги ҳуқуқбузарликларнинг турлари ва таснифи." Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.6 (2024): 4-12.

22. Aliqulovich T. A. Atxam o'g'li MX Profilaktika inspektorining ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonidagi ishtirokining oziga xos xususiyatlari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 24. – С. 230-235.